

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



B MARKETING E INNOVATSIYA D I BIZNES S RAQAMLI MARKETING V D ELEKTRON TIJORAT

№2-SON

2025-YIL, FEVRAL

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Elektron nashr 609 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 28-fevralda ruxsat etildi

HAMKORLARIMIZ:

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
2. “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi



MUNDARIJA

AHOLI O'RTASIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING AHAMIYATI	7
Nazarova Ra'no Rustamovna	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY	17
Nazarova Rano Rustamovna, Jamolov Bejan Xurshidovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	26
Karrieva Yakutjan Karimovna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI HUDUDIY STATISTIK GURUHLASH	33
Akbarova Barno Shuxratovna	
KORXONALARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI: RAQAMLI MARKETING VOSITALARINI INTEGRATSIYA QILISH VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH USULLARI ..	40
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
JIZZAX VILOYATI FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATINING STATISTIK TADQIQI	47
Ayubjonov Abbas Xosilovich, Ratayev Faxriddin Irismatovich	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	58
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Najmiddinov Sherzod Qiyomiddin o'g'li	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA YO'NALTIRILGAN OILAVIY TADBIRKORLIKDA INSON IMKONIYATLARIGA YONDASHUVI	65
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARINING O'RNI VA IQTISODIY FAOLIYATINING STATISTIK TAHLILI	75
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
NEYROMARKETINGNING ZAMONAVIY REKLAMA STRATEGIYALARIGA TA'SIRI	86
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ HO'JALIK MAHSULOTALARI ISHLAB CHIQRISHNING AHAMIYATI	97
Masharipova Fazilat Axmedovna	
THE IMPORTANCE OF BENCHMARKING IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF MANUFACTURING ENTERPRISES.....	106
Musayeva Shoirazimovna	
KORXONALARNING FAOLIYATIDA DAROMAD VA XARAJAT HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Muxibova Guli Yarkinovna, Turabekova Ominaxon Ulug'bek qizi	
TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	119
Sapayev Axmed Durdibaevich	
"UNIVERSITET 4.0" MODEL: RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA UNIVERSITETLARNING RAQAMLI MARKETING YONDASHUVI	127
Xidoyatov Murod Batirovich	
TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH YONDASHUVLARI.....	139
Yusupova Mexribon Uktamovna	
MINTAQADA TRANSPORT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TADQIQI.....	148
Sapayev Axmed Durdibayevich	
O'ZBEKISTONDA YUK VA YO'LOVCHI TASHISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	154
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	

BANK XIZMATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA MOLIYAVIY TEKNOLOGIYALARINING ROLI.....	162
Azimova Nasiba Shuxratovna	
KORXONALAR FAOLIYATIDA MEHNAT INTIZOMINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI.....	170
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDA MAHALLIY BYUDJETLAR BARQARORLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI.....	176
Davlatov Muradbek Saparboyevich	
SIX MAIN STAGES OF THE SUPPLY PROCESS.....	183
Ergashev Jahongir Bakhodirovich	
O‘ZBEKISTONDAGI QURILISH MATERIALLARI SANOATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	195
Igamova Shaxinya Zikrilloevna	
XALQARO SAYYOHLIK BOZORIDA IJTIMOIIY TARMOQLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARB TENDENSIYALARI.....	202
Kasimova Zilola G‘ulomiddinovna	
KORXONA IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK BOSHQARUV TIZIMINI JORIY ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	210
Qodirov Abduvoxid Abdumannof o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA TUROPERATORLAR FAOLIYATIDA MARKETINGNI TAKOMILLASHTIRISH	220
Qutlimurotov Fayzullo Sadulayevich	
INNOVATSION MENEJMENT TAMOIYILLARI ASOSIDA KORXONALARNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	229
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
THE IMPORTANCE OF OPERATING EXPENSES IN MANAGEMENT COSTS	237
Turdieva Gulaida Omirbayevna, Maulenberganova Khusnida Khursand qizi	
ILM-FAN SOHASIDA BOZOR MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TIZIMI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI.....	247
Tursunov Bekmuxammad Omonovich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING KOMPANIYA KAPITAL QIYMATIGA TA’SIRI	255
Urinov Bobur Nasilloevich	
O‘ZBEKISTONDA MEHMONXONA XO‘JALIGI MILLIY TASNIFLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	263
Xamitov Mubin Xabibjonovich	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARINING KO‘ZI OJIZLARNING INTELLEKTUAL FAOLIYATIDAGI O‘RNI	276
Mannopova Manzura Jamil qizi	
HUDUDLARDA ENERGIYA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	284
Safarov Akbar Shokirovich	
TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIGA SINERGIYANING TA’SIRI VA UNING ELEMENTLARI	291
Tojiyev Sa’dulla Muhitdinovich	
УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИЯМИ В СФЕРЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ НА РЕГИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ	302
Абдурахманов Зафар Мамурович	
ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	311
Карабаева Гулнора Шарафитдиновна,	

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В КИТАЕ .320	
Медынская Ирина Вильевна	
MODA INDUSTRIYASIDA NEYROMARKETINGDAN FOYDALANISH339	
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
KORXONALARNING EKSPORT SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH346	
Jiyamuradov Rustam Nuriddinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA BIZNES MODELLARINING SHAKLLANISHI351	
Saatova Lolakhon Ergashevna	
MODA INDUSTRIYASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI359	
Ahmedova Rayhona Jasurbek qizi	
OLIY TA'LIM MUASSALARI BOSHQARUVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH367	
Berdiyev Temurbek Maxmudullo o'g'li	
MINTAQALARDA KLASSTERLARNING TASHKILIY IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH376	
Beknazarova Manzura Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARIDA BRENDNI MILLIY AN'ANALARGA MOS RAVISHDA SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI383	
Babaxodjayev Giyosiddin Nasirovich	
THE ROLE OF PROGRAMMATIC ADVERTISING IN DATA-DRIVEN MARKETING: OPTIMIZING TARGETED ADVERTISING STRATEGIES IN THE TOURISM SECTOR392	
Sodikov Mirziyo Odiljon ogli	
UMUMIY FOYDALANISHDAGI AVTOMOBIL YO'LLARINI QURISH, QAYTA QURISH ISHLARIGA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MABLAG'LARINI JALB QILISH400	
Pardayev Fayzulla G'affarovich	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА407	
Гафурова Дилшода Рамазановна	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARI: IJTIMOY MEDIA MARKETINGDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI414	
Xamidov Obidjon Xafizovich	
Baxtiyorova Nigina Ulug'bek qizi	
KOMPANIYALAR KAPITAL AKTIVLARINI BAHOLASHNING NAZARIY JIHATLARI423	
Bunyod Usmonov Aktam o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ КЛАСТЕРОВ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ОБЗОР427	
Садриддинова Нигора Хусниддиновна	
ИГРЫ И ИГРОВЫЕ ЗАНЯТИЯ ПО ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ433	
Фозилова Фирангиза Комиловна	
BILIMLAR IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA TA'LIM SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI440	
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI448	
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI458	
Sodiqova Dilafruz Zohid qizi	

O'ZBEKISTONDA YASHIL MOLİYANI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA STRATEGIK YO'NALISHLARNI ANIQLASH	467
Masharipova Shahlo Adambaevna	
MOBIL ALOQA TARMOQLARINING DUNYO IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI	478
Dilafroz Aripova	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASHNING TASHKILY MOLİYAVIY MEXANIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.	489
Naziraliyev Diyorbek Imomali o'g'li	
SUG'URTA KOMPANIYALAR MOLİYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR VA ULARNI BAHOLASH USULLARI	500
Haqberdiyev Bekzod Uktamovich	
AGROKLASTER TIZIMIDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'INING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI VA ULARNI QO'LLASH STRATEGIYALARI.....	509
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	517
Raximov Anvar Norimovich	
MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH: XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI.....	527
Ergashev Otamurod Tashtemirovich	
MUHANDISLIK TA'LIM SOHALARI TALABALARIDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODEL.	536
Butayev Tuxtasin	
O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI ASOSIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	543
Abdusattorov Sarvar Shokirovich	
АНАЛИЗ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ СЕТИ МЕТОДАМИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ.....	552
Алланязова Айсапа Муратовна	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	564
Yadgarova Nigora Rixsulla qizi	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	572
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA IFLOSLANISHINI BAHOLASH VA BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	584
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li	
MOLIYAVIY XAVFLAR TASNIFINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	591
Jabborov Azamat	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR INNOVATSION BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH TAJRIBALARI.....	596
Baymuratova Madina Tursunboy qizi	
IQTISODIYOTNING TARKIBIY O'ZGARISHLARINI KICHIK BIZNES TARAQQIYOTINI TA'MINLASHDAGI ROLINI BAHOLASH MASALALARI	602
Elov Olimdjon Komilovich	

HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDA MAHALLIY BYUDJETLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

Davlatov Muradbek Saparboyevich

Urganch davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlashning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etilgan. Mahalliy byudjetlar barqarorligining asosiy indikatorlari, jumladan, daromad va xarajatlar balansi, soliqlar va nosoliq daromadlar barqarorligi, byudjet taqchilligi va qarzlari, moliyaviy mustaqillik va barqarorlik, ijtimoiy xarajatlar va xizmatlar indikatorlari tahlil qilingan. Tahlillar natijasida mamlakatimiz mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy byudjetlar, biriktirilgan daromadlar, tartibga soluvchi daromadlar, daromadlarni diversifikatsiyalash, ijtimoiy soha xarajatlari, mahalliy byudjetlar barqarorligi.

Аннотация

В статье исследованы научно-теоретические аспекты обеспечения устойчивости местных бюджетов. Проанализированы основные индикаторы устойчивости местных бюджетов, в том числе баланс доходов и расходов, стабильность налоговых и неналоговых доходов, дефицит бюджета и задолженность, финансовая независимость и устойчивость, а также показатели социальных расходов и услуг. По результатам анализа разработаны предложения, направленные на обеспечение устойчивости местных бюджетов нашей страны.

Ключевые слова: местные бюджеты, закрепленные доходы, регулирующие доходы, диверсификация доходов, социальные расходы, устойчивость местных бюджетов.

Abstract

The article explores the scientific and theoretical aspects of ensuring the sustainability of local budgets. The main indicators of local budget stability are analyzed, including the balance of revenues and expenditures, the stability of tax and non-tax revenues, budget deficits and debts, financial independence and sustainability, as well as indicators of social expenditures and services. Based on the analysis, proposals have been developed to enhance the stability of local budgets in our country.

Keywords: local budgets, assigned revenues, regulatory revenues, revenue diversification, social sector expenditures, local budget sustainability.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda hududlarda yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Garchi hududlar iqtisodiy salohiyatida ayrim tafovutlar kuzatilsa-da, davlat tomonidan standart ijtimoiy

xizmatlarni samarali taqdim etish orqali hududiy ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash iqtisodiy siyosat samaradorligi uchun muhimdir.

Ushbu umumiy va strategik vazifalar samarali bajarilishi uchun mahalliy boshqaruv organlari ixtiyorida shakllantiriladigan mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlarini puxta boshqarish mexanizmini yaratish talab etiladi. Mazkur ilmiy maqolada mahalliy byudjetlar daromad va xarajatlarini boshqarish orqali ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari tadqiq qilingan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy byudjetlar barqarorligi bo'yicha bir qator xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari tizimlashtirilgan. Xususan, davlat moliyasi sohasidagi taniqli iqtisodchilardan biri Richard Masgreyv (Richard Musgrave) [1] mahalliy byudjetlar barqarorligini davlat moliyasi nazariyasi doirasida tahlil qilgan. Iqtisodchi Charlz Maklur (Charles McLure) [3] fiskal federalizm muammolarini tadqiq qilish jarayonida mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlashda soliq bazasining kengligi va mahalliy daromad manbalari muhimligini ko'rsatadi. Uning tadqiqotlari mahalliy hokimiyatlar byudjet barqarorligini saqlash uchun ochiq va shaffof moliyaviy boshqaruvni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.

Uolles Outs (Wallace Oates) [2] mahalliy hokimiyatlar o'z byudjetlarini qanday tartibga solishi kerakligi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning fikriga ko'ra, mahalliy byudjetlarning barqarorligi soliq tushumlari va xarajatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga bog'liq. Shuningdek, u mahalliy hokimiyatlarning qarz olish cheklovlarini aniq belgilash muhimligini qayd etadi.

Iqtisodchi, Nobel mukofoti sovrindori Pol Krugman (Paul Krugman) [4] mahalliy iqtisodiyot va byudjet barqarorligiga tashqi shoklar hamda iqtisodiy inqirozlarning ta'sirini o'rgangan.

Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) mutaxassisi Tereza Ter-Minasyan (Teresa Ter-Minassian) [5] mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini saqlashda aniq soliq siyosati va byudjet masalalariga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. U byudjet barqarorligiga erishish uchun mahalliy hokimiyatlar o'z xarajatlarini samarali boshqarishi muhimligini qayd etgan.

O'zbekistonda mahalliy byudjetlar barqarorligi bo'yicha tadqiqot olib borgan iqtisodchi olimlar ham mavjud. Professor A.U. Burxanov [6] mahalliy byudjetlar daromad bazasini shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslarini o'rgangan hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish orqali mahalliy byudjetlar daromadlarini mustahkamlash imkoniyatlarini tadqiq etgan. Dotsent X.A. Kurbonov [6] esa mahalliy byudjetlar daromad bazasini kengaytirish yo'llarini, jumladan, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish masalalarini tahlil qilgan. Professor A.X. Islamqulov [7] mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash masalalarini tadqiq etgan bo'lib, markaziy va mahalliy davlat hokimiyatlarining moliya-byudjet sohasidagi vakolatlarini aniq belgilash orqali byudjet daromadlari mutanosibligini ta'minlash zarurligini ilgari suradi.

Dotsent Q.A. Usmonov [9] byudjet daromadlarini rejalashtirishning ahamiyatini o'rgangan va bu boradagi huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflarni

tizimlashtirgan. Professor Sh.A. Toshmatov [8] mahalliy byudjetlarga soliq tushumlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tahlil qilib, soliqlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash tizimini takomillashtirish borasida takliflarni ishlab chiqqan.

Yuqoridagi olimlarning ishlari mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqola doirasida olib borilgan tadqiqotda ilmiy bilishning ilmiy abstraksiyalash usulidan foydalanilgan bo'lib, bu usul tadqiqot jarayonida muayyan hodisalar va jarayonlarni umumlashtirish, ularning mohiyatini chuqurroq anglash hamda nazariy model yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, tadqiqotda empirik tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan bo'lib, xususan, statistik kuzatish, taqqoslash, tahlil va sintez usullari qo'llanilgan.

Statistik kuzatish usuli tadqiqot ob'ekting xususiyatlari va tendensiyalarini aniqlashga xizmat qilgan bo'lsa, taqqoslash usuli olingan ma'lumotlarni boshqa ilmiy natijalar bilan solishtirish, umumiy va farqli jihatlarni aniqlash imkonini bergan. Tahlil usuli tadqiqot ob'ekting alohida tarkibiy qismlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, sintez usuli esa olingan natijalarni yagona tizimga keltirish, umumiy xulosalar chiqarish va ilmiy tavsifalar ishlab chiqishda muhim rol o'ynagan.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash va empirik usullar uyg'unlashgan holda qo'llanilib, ilmiy xulosalarning ishonchliligini oshirish va tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, mahalliy byudjetlar barqarorligi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirishda muhim moliyaviy omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Nazariy jihatdan, mahalliy byudjetlar barqarorligi daromad bazasining xarajatlarni o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirish uchun yetarli bo'lishi bilan izohlanadi. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligi turli omilli fenomenlardan biri bo'lib, mutlaq barqarorlik ularga birlashtirilgan daromadlarning xarajat majburiyatlari kesimida yetarliligiga asoslanadi.

Richard Masgreyv (Richard Musgrave) [1] fikriga ko'ra, mahalliy hokimiyatlar uchun moliyaviy barqarorlik davlat byudjeti tizimining uchta asosiy vazifasi – taqsimlash, qayta taqsimlash va iqtisodiy barqarorlashtirishni ta'minlash bilan bog'liq. Uning nazarida mahalliy davlat hokimiyatlari soliq va xarajat siyosatida mustaqillikka ega bo'lishi kerak bo'lib, mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiyalangan daromad manbalarining ahamiyati yuqori ekanini ta'kidlaydi.


Mahalliy byudjetlar barqarorligiga oid iqtisodchi olimlar qarashlarini inobatga olib, bu barqarorlikni bir qator mezonlar bo'yicha tahlil qilish mumkin. Daromad va xarajatlar balansi indikatoriga jami birlashtirilgan va tartibga soluvchi daromadlarning, shuningdek, ular tomonidan moliyalashtiriladigan xarajatlarning o'zaro muvofiqligi kiradi. Ushbu indikator yordamida xarajatlarni moliyalashtirish uchun zarur daromadlar qaysi manbalar hisobidan shakllanayotganiga baho berish mumkin.

Jumladan, biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlar, shuningdek, soliqsiz daromadlar salohiyatini baholash mumkin. Transfertlar ulushi markaziy byudjetdan ajratiladigan moliyaviy yordamning mahalliy byudjetlar xarajatlarini o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirishdagi ahamiyatini ifodalaydi.

Soliq va nosoliq daromadlar barqarorligi indikatorlari yordamida mahalliy byudjetlar daromad salohiyatini shakllantirishda soliq tushumlari ahamiyati va soliqsiz daromadlar ulushi haqida xulosalar chiqarish mumkin. Shuningdek, ushbu indikator hududlardagi soliq salohiyatining potensial va faktik holati nisbatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Jahon amaliyotida, asosan federativ tuzilishga asoslangan davlatlarda byudjet tizimidagi kuchli nomarkazlashtirilgan model sharoitida mahalliy byudjetlar defitsit bilan ijro etilishi va uni moliyalashtirish uchun qarz instrumentlaridan (masalan, munitsipal obligatsiyalar) keng foydalanilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi amaldagi Byudjet kodeksiga binoan, mahalliy byudjetlarda hozircha bunday amaliyot mavjud emas. Garchi mahalliy byudjetlar daromad va xarajatlaridagi nomutanosiblik (ya'ni defitsit) paytida dotatsiya shaklidagi transfertlar qo'llanilsa-da, 2011-yildan buyon "rotatsion rejim"dagi mahalliy byudjetlar holati kuzatilmagan.

Mahalliy byudjetlar barqarorligini baholash va boshqarishda moliyaviy mustaqillik va barqarorlik indikatorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlariga tayanib, xarajat majburiyatlarini moliyalashtirish imkoniyatlariga baho beriladi. Shuningdek, subvensiyalar yoki ijtimoiy transfertlar hamda umumdavlat soliqlaridan me'yoriy ajratmalar ulushi ham tahlil qilinadi. So'nggi yillarda mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash siyosati, asosan hududlarning soliq va soliqsiz daromad salohiyatini oshirish orqali xarajat tarkibida biriktirilgan daromadlar ulushini kengaytirish masalasiga yo'naltirilgan bo'lib, bu islohotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi.



1-rasm. Mahalliy byudjetlar barqarorligining asosiy indikatorlari. ¹

¹ Muallif ishlanmasi

Yalpi hududiy mahsulotni taqsimlash jarayonida shakllanadigan mahalliy byudjet daromadlari, ayni paytda, asosan mol-mulk solig'i va resurs soliqlariga to'g'ri kelmoqda. So'nggi yillarda ayrim daromad soliq turlari ham mahalliy byudjetlarga birlashtirilishi amaliyoti natijasida mahalliy byudjetlarning birlashtirilgan daromad bazasi mustahkamlanib bormoqda.

Biroq jami davlat byudjeti xarajatlarini byudjet tizimi darajalari bo'yicha taqsimlashda ijtimoiy soha xarajatlarining asosiy qismi mahalliy byudjetlarga yuklatilgani, bu byudjetlarning daromad bazasini barqaror mustahkamlash masalasini yanada chuqurlashtirishni talab qiladi. Mahalliy byudjetlar ijtimoiy sohadagi davlat siyosatini samarali amalga oshirishda asosiy moliyaviy manba sifatida xizmat qilmoqda. Garchi ijtimoiy xarajatlar jami davlat byudjetining qariyb 60 foizini tashkil etsa-da, uning asosiy qismi aynan mahalliy byudjetlar hisobidan moliyalashtiriladi. Shuning uchun ham hududlar kesimidagi davlat ijtimoiy xizmatlarini samarali bajara olishda mahalliy byudjetlar yetakchi moliyaviy omil bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval.

Mahalliy byudjetlar daromad va xarajatlari dinamikasi, trln. so'm¹

Hududlar	Yillar											
	2020			2021			2022			2023		
	Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert
QQR	2,74	3,54	0,80	1,87	4,38	2,51	2,50	5,94	3,44	2,84	6,81	3,96
Andijon	2,11	3,71	1,60	2,42	4,91	2,49	3,25	6,87	3,62	3,93	8,14	4,21
Buxoro	1,78	3,10	1,32	2,37	4,07	1,70	3,43	5,35	1,93	3,88	5,97	2,09
Jizzax	1,06	2,06	1,00	1,46	2,93	1,47	1,82	3,93	2,11	2,23	4,65	2,42
Qashqadaryo	2,47	4,60	2,13	2,72	6,10	3,37	3,92	8,81	4,89	4,61	10,52	5,91
Navoiy	1,54	1,82	0,28	1,95	2,63	0,68	2,43	3,47	1,04	3,04	4,05	1,01
Namangan	1,76	3,78	2,01	2,30	4,96	2,66	3,27	6,93	3,66	3,52	8,11	4,60
Samarqand	2,39	3,81	1,43	3,15	5,68	2,53	4,20	7,89	3,69	5,10	8,78	3,68
Surxondaryo	1,61	3,25	1,64	1,99	4,78	2,79	2,67	6,53	3,86	3,04	7,94	4,90
Sirdaryo	0,72	2,38	1,66	0,88	2,14	1,26	1,15	2,67	1,52	1,39	3,15	1,76
Toshkent	2,40	3,39	0,99	3,73	4,88	1,15	4,53	6,84	2,31	6,02	7,77	1,75
Farg'ona	2,68	4,13	1,45	3,67	5,87	2,20	4,78	8,75	3,97	5,17	9,89	4,72
Xorazm	1,30	2,28	0,98	1,74	3,34	1,60	2,38	4,49	2,10	2,74	5,61	2,87
Toshkent shahri	3,16	5,35	2,19	4,91	8,88	3,97	7,07	10,33	3,26	8,22	10,36	2,15
Jami	27,70	47,19	19,49	35,17	65,53	30,36	47,39	88,79	41,40	55,73	101,74	46,01

Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida mahalliy soliqlar va yig'imlar ulushining pastligi hamda tartibga soluvchi daromadlarga yuqori qaramlik,

¹ Manba: <https://www.imv.uz/> — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tuzildi.

hududlardagi ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlarini cheklashga olib kelmoqda.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda jami mahalliy byudjetlardan moliyalashtirilgan xarajatlar 47,19 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 101,74 trln. so'mgacha o'sgan. Ushbu xarajatlarning 27,0 trln. so'mlik nominal qiymatdagi daromadlari, asosan mahalliy soliqlar, yig'imlar va tartibga soluvchi umumdavlat soliqlaridan me'yoriy ajratmalarga to'g'ri kelgan. 2023-yilda esa ushbu ko'rsatkich 55,73 trln. so'mga yetgan.

Yuqori byudjetdan mahalliy byudjetlarga ajratilgan transfertlarning nominal qiymati 2020-yilda 19,49 trln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 46,01 trln. so'mga yetdi. Shunday qilib, tahlil qilinayotgan davrda mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan xarajatlarning katta qismi yuqori byudjetlardan ajratilayotgan transfertlarga bog'liq bo'layotgani kuzatilmoqda.

Bundan tashqari, jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, hududlarda doimiy yashovchi aholi sonidagi tafovut hamda ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning turlichaligi sababli, daromad va xarajatlarning hududiy taqsimotida keskin tebranishlar yuzaga kelmoqda.

Garchi ijtimoiy transfertlarni ajratish mexanizmida mahalliy davlat hokimiyati organlari asosan "tranzit" rolini bajarayotgan bo'lsa-da, ijtimoiy sohadagi hududiy islohotlarni amalga oshirishda ularning samarali qarorlar qabul qilishi muhimdir. Bu, o'z navbatida, mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlarini (mahalliy soliqlar va yig'imlar) ko'paytirish va hududlar soliq salohiyatidan oqilona foydalanish uchun samarali byudjet-soliq mexanizmini shakllantirishni taqozo etadi.

Albatta, yuqori byudjetdan ajratiladigan ijtimoiy transfertlar orqali ijtimoiy sohadagi xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirish ma'lum darajada kafolatlanmoqda. Biroq ushbu mexanizm asosan to'lov qobiliyatini ta'minlashga yordam berayotgani holda, xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirish bilan bog'liq muammolardan biri — rejalashtirilmagan kassaviy tafovut — hali ham kuzatiladi. Uni moliyalashtirishda byudjet ssudalaridan foydalanish amaliyoti mavjud bo'lib, bu mahalliy byudjetlarning "likvidlilik" darajasini oshirishga qaratilgan samarali byudjet-soliq mexanizmini ishlab chiqishni talab etadi.

Bundan tashqari, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish amaliyoti shuni tasdiqlaydiki, daromadlar diversifikatsiyasi yetarli darajada emas. Natijada, ma'lum turdagi daromadlarga qaramlik kuchli bo'lib, ushbu daromad turlari bo'yicha tushumlarning samaradorligi mahalliy byudjetlar barqarorligiga kuchli darajada bog'liq ekani ko'zga tashlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash O'zbekiston iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, hududlardagi umumiy iqtisodiy va moliyaviy omillar kontekstida daromad bazasini mustahkamlashga qaratilgan aniq mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

Soliq bazasini kengaytirish, shaffoflikni mustahkamlash, markaziy va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatish hamda infratuzilmani

rivojlantirish kabi chora-tadbirlar nafaqat mahalliy byudjetlarning barqarorligini ta'minlaydi, balki umumiy iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini ham rag'batlantiradi.

Ushbu kompleks yondashuv yordamida O'zbekistonda mahalliy byudjetlar barqarorligi muammosini hal etish, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash va hududlar iqtisodiy rivojlanishini yanada mustahkamlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Musgrave, R. A. (1959). *The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy*. McGraw-Hill.
2. Oates, W. E. (1972). *Fiscal Federalism*. Harcourt Brace Jovanovich.
3. McLure, C. (1998). The Tax Assignment Problem: Ruminations on How Theory and Practice Depend on History. *National Tax Journal*.
4. Krugman, P. (1991). Increasing Returns and Economic Geography. *Journal of Political Economy*.
5. Ter-Minassian, T. (1997). *Fiscal Federalism in Theory and Practice*. International Monetary Fund.
6. Бурханов А.У., Курбонов Х.А. Худудларда маҳаллий бюджетлар даромадлар манбаини кенгайтириш йўллари (Қашқадарё вилояти мисолида) / "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали, №1, 2018 йил.
7. Исламқулов А.Х. Маҳаллий бюджетлар даромадлари барқарорлигини таъминлаш масалалари / "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали, №4, 2016 йил.
8. Тошматов Ш.А. Иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришда давлат бюджети даромадлари манбаларини кенгайтириш йўналишлари // "Ўзбекистонда молия секторини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари" республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами, 2017 йил.
9. Усмонов Қ.А. Бюджет даромадларини режалаштириш жараёни, усуллари ва уларни такомиллаштириш йўналишлари / "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали, №4, 2014 йил.
10. <https://www.imv.uz/> — Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги расмий сайти.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**